

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOTI

bo‘yicha

D A S T U R

60112400 “Professional ta‘lim” bakalavriat yo‘nalishi.

(2-bosqich 5- semesterida 60 soatga (2 xaftaga) mo‘ljallangan)

Toshkent –2023 yil.

Dastur Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhadislari instituti milliy tadqiqot universiteti Ilmiy Uslubiy Kengashining « ____ » _____ 2023 yil « ____ » sonli majlisida k'rib chiqilgan va tavsiya qilingan.

Tuzuvchilar:

D.I.Muqumova – “TIQXMMI”-MTU “Professional ta’lim” kafedrası mudiri,
p.f.f.d., dotsent

A.A.Jumanov – “TIQXMMI”-MTU “Professional ta’lim” kafedrası katta
o'qıtuvchısı PhD

Taqrizchilar:

B.R.Muqimov - “TIQXMMI”-MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti “Umumtexnik fanlar” kafedrası mudiri p.f.f.d., (PhD)

F.M.Sadikova – “TIQXMMI”-MTU “Professional ta’lim” kafedrası dotsenti.

KIRISH

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK,-3151 -sonli qarori, 2018 yil 8 maydagi “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash tizimni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PK,-3702 sonli qarori, 2019 yil 6 sentyabrdagi PF- 5812-sonli “professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofik qarorlari hamda “iqtisodiyot tarmoqlari uchun muxandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 42-sonli qarorida ko‘rsatilgan oliy ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot yaxlitligi ta’minlash, talabalarning malakaviy amaliyotlarini ishlab chiqarish korxonalarida o‘tkazishni samarali tashkil etish, har bir talabaning tegishli tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o‘tkazilishini tashkillashtirish, talabalarning ishlab chiqarish va malakaviy amaliyotlarini soxaviy korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish jarayonlari bilan chambarchas bog‘lash, korxonalar va tashkilotlar ob‘ektlarida talabalarning amaliyotini tashkil qilish va ustoz-shogird tizimi asosida o‘tilishini ta’minlash hamda talabalarni ishlab chiqarishning yangi me‘yoriy xujjatlari, zamonaviy informasion dasturiy ta’minot maxsulotlari bilan yaqindan tanishtirish, tizimdagi korxonalar va tashkilotlarda talabalarning ilmiy ishlarni bajarishga ko‘maklashish kabi belgilangan vazifalar amalga oshirish maqsadida ushbu amaliyot dasturi ishlab chiqilgan.

O‘zbekistan Respublikasi “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti tugrisida”gi Nizom Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1998 yil 30 oktyabrdagi №305 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan bo‘lib, hozirgi kunda barcha oliy ta’lim muassasalarida malakaviy amaliyotlar ushbu Nizom talablari asosida o‘tkazilmoqda.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan talabalar amaliyoti tanlangan sohaga mos keladigan ilg'or korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'tkazilishi kerak bo'ladi. Chunki, talabalar amaliyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari fanlarining nazariy qismini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan, o'qish jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkaziladigan davomi hisoblanadi. Pedagogik tanishuv amaliyoti soha yo'nalishlari bo'yicha qishloq va suv xo'jjaligi sohalari va yo'nalishlaridagi mavjud professional ta'lim muassasalarida o'tkaziladi.

Pedagogik tanishuv amaliyotning asosiy maqsad va vazifalari shundan iboratki, bu xalq xo'jjaligining turli sohalari uchun malakali ishchi va mutaxassis kadrlar tayyorlashning ilmiy-metodik asoslarini, muxim va dolzarb iqtisodiy-ijtimoiy muammolarini hal qilish, oliy va o'rta maxsus ta'limini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish, ta'limining izchilligi muammolarini hal qilish, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar talabi asosida kasbiy tayyorlashning yangi mezonlarini ishlab chiqish, integrasiyalashtirilgan kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi standartlarining metodologik asoslarini yaratish, ta'lim mazmunining yangi shakllarini, vositalarini va uslublarini didaktik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantirish, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlari talablaridan kelib chiqayotgan ta'lim va tarbiya muammolariga tegishli bo'lgan oliy ta'lim muassasalari, hunar-texnika, biznes maktablari, liseylari va kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan fanlarni o'qitish jarayonini takomillashtirishda yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni qo'llashga bag'ishlangan ilmiy-metodik izlanishlarni uz ichiga oladi.

1. PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOTINING MAQSADI VA VAZIFALARI.

Pedagogik tanishuv amaliyotining maqsadi – bakalavriatning 60112400 - “Professional ta'lim” yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarda kasbiy

pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va ularning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Pedagogik tanishuv amaliyotining vazifalari:

- o'quv-tarbiya jarayoni bilan tanishish;
- pedagogik kuzatishni olib borish va uni tahlil qilish;
- pedagogik hujjatlarni o'rganish;
- darsdan tashqari tadbirlarni ish va kuzatish tahlil qilish;
- pedagogik faoliyatning boshlang'ich ko'nikmalarini egallash;
- pedagogik munosabatlarni malakalarini rivojlantirish;
- kasbiy yo'nalishni shakllantirish;
- amaliyot o'tkaziladigan ta'lim muassasalarini amaliyot dasturlari bilan tanishish;

2. PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOTINING OB'EKTALARI.

Pedagogik tanishuv amaliyoti Respublikamizning Professional ta'lim muassasalari bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma asosida o'tkaziladi.

Ikki tomonlarning majburiyatlari:

1. Universitet quyidagi majburiyatlarini oladi:

- a) talabalarni amaliyot dasturini to'la bajarishlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma va me'yoriy xujjatlar bilan ta'minlaydi;
- b) amaliyotlarning sifatli o'tishini ta'minlash uchun amaliyotlarga universitet tomonidan rahbar qilib yuqori malakali professor-o'qituvchi tayinlaydi;
- v) universitet talabalarining amaliyot o'tish muddati, talabalar soni xaqidagi ma'lumotni korxonaga bilan kelishilgan xolda shartnomaga ilova qiladi.

2. Korxonaga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- a) mehnat muxofazasi to'g'risida instruktaj bilan talabani tanishtirib tegishli jurnalda qayd etadi;
- b) amaliyot rejasini to'liq bajarish uchun talabaga kerakli sharoit yaratib beradi;

v) amaliyot o‘tadigan talabalarga rahbar qilib malakali mutaxassislarni tayinlaydi;

g) amaliyot tugagandan so‘ng talabaning ishga va tayyorlangan xisoboti-sifatiga tavsifnoma beradi.

3. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Shartnoma muddati, “__” _____ **20__ yildan** “__” _____ **20__ yilgacha.** ko‘rsatiladi.

3. PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOT O‘TKAZISHNI TASHKIL QILISH.

1.1. Pedagogik tanishuv amaliyoti ta‘lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etadigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo‘llayotgan, bu borada yetarli darajada ish tajribalariga ega bo‘lgan, o‘quv-moddiy ta‘minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzluksiz ta‘lim tizimining o‘rta maxsus, professionaal ta‘lim muassasalari bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil qilinadi.

1.2. Pedagogik tanishuv amaliyotni tashkil qilish va o‘tkazish uchun javobgarlik oliy o‘quv yurti rektori zimmasiga yuklanadi.

Nazariy bilimlarni talabalar “Pedagogika”, “Psixologiya” va tarbiyaga xos fanlarni o‘tish davrida olishadi.

Pedagogik tanishuv amaliyotiga ketishdan oldin rektorat, dekanat, “Professional ta‘lim va jismoniy madaniyat”, “Hayot faoliyati xavfsizligi” kafedralari xodimlari tomonidan talabalarni tegishli amaliyot o‘tkazish to‘g‘risidagi rektor buyrug‘i bilan tanishtiriladi, amaliyot dasturlarini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi va texnika xavfsizligi bo‘yicha instruktaj o‘tkaziladi.

Talabalar qo‘liga amaliyotni o‘tkazish bo‘yicha “Uslubiy qo‘llanmalar” beriladi. Kafedraning yetakchi professor-o‘qituvchilari tomonidan amaliyotni samarali o‘tkazish uchun tegishli maslahatlar beriladi va suhbatlar o‘tkaziladi.

Pedagogik tanishuv amaliyotiga uslubiy rahbarligini universitet o'qituvchilari, tashkiliy rahbarligini, professionaal ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan amaliyot rahbarlari bajaradilar.

1.3. Oliy o'quv yurti tomonidan tayinlangan *pedagogik tanishuv amaliyot rahbari*:

- pedagogika, psixologiya, mutaxassislik va maxsus fanlarni o'qitish metodikasi kafedralari bilan birgalikda talabalarning pedagogik tanishuv amaliyoti dasturi talablari, amaliyot davomidagi pedagogik faoliyatni nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqadi;

- ta'lim muassasalari ma'muriyatini pedagogik tanishuv amaliyoti dasturi bilan tanishtiradi;

- amaliyot davomida bajariladigan tadbirlarni birgalikda kelishib oladi;

- pedagogik tanishuv amaliyoti davrida ya'ni boshlanishi va yakunida ta'lim muassasasi rahbari ishtirokida yig'ilishlar tashkil etadi;

- talabalarning amaliyot davrida bajargan ishlari yuzasidan taqdim etilgan hujjatlarni tahlil qiladi;

- amaliyot davrida amalga oshirilishi rejalashtirilgan tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar dastur talablariga muvofiq talabalarning shaxsiy rejalarini tuzishda bevosita yordam uyushtiradi va ularni tasdiqlaydi;

- pedagogik tanishuv amaliyotni rejasi asosida bajargan hisobot ishlarini tekshirib, belgilangan baholash mezonlariga muvofiq baholaydi;

- pedagogik tanishuv amaliyot dasturi asosida talabalarning ta'lim muassasasida qilgan dars tahlillariga baho berish;

- pedagogik tanishuv amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish tadbirini belgilaydi, samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritadi;

- pedagogik tanishuv amaliyotning hujjatlarini rasmiylashtirish, amaliyotga rahbarlik qilgan barcha pedagogik xodimlarga me'yoriy hujjatlarda belgilangan tarif bo'yicha haq to'lashni nazorat qiladi.

1.4. Pedagogik tanishuv amaliyoti o'tkazadigan *ta'lim muassasa tomonidan tayinlangan rahbari:*

- amaliyotni o'tkazishda oliy o'quv yurtida belgilangan dastur va reja talablariga muvofiq ish olib boradi;

- amaliyot o'tkazadigan talabalarga reja asosida ish olib borishlari uchun ijtimoiy-pedagogik, psixologik muhit yaratadi;

- amaliyot dasturiga muvofiq amaliyot samaradorligini ta'minlovchi fan kabinetlari, ishlab chiqarish ustaxonalari kasbi ish joylari va amaliyotchilar xonasi bilan ta'minlaydi;

- talabalar tomonidan tahlil qilinayotgan dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etadi, kuzatadi, muhokamasida qatnashadi;

- talabalar bilan yig'ilishlar, suhbatlar uyushtirishda faol qatnashadi;

- talabalarga kutubxonalarda, kerakli adabiyotlar bilan ishlashda, fan kabinetlaridan foydalanishda hamda ichki mehnat tartib-intizomlarga amal qilishda zaruriy yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi;

- pedagogik tanishuv amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha qo'yilgan kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish tadbirini belgilaydi, samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritadi.

4. PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOTNING NAMUNAVIY REJASI.

Pedagogik tanishuv amaliyoti 60112400 – «Professional ta'lim» yo'nalishlari uchun 2 haftaga mo'ljallangan. 2 - kursning 5 semestrida texnikumlarda o'tkaziladi va tanishtirish xususiyatiga ega.

Talabalarning pedagogik tanishuv amaliyoti o'qish darslaridan ajralmagan holda «4+2» o'quv jarayoni jadvaliga asosan o'tkaziladi. Amaliyotda talabalar 1-2 tadan guruhlarga birlashtirilib qo'yiladi. Ular shu guruhlarda dasturda belgilangan ishlarni bajaradilar. Har bir talabaning o'quv yurtidagi ish vaqti 6 soatdan kam bo'lmasligi kerak va har ish kunida qilingan, bajarilgan ishlar mazmuni kundalik daftarga yozib boriladi.

Amaliyot o‘tish joyida (Professional ta’lim muassaslarida) ish faoliyati va qilinadigan ishlar bilan tanishish, amaliyot davrida bajariladigan ishlar uchun aniq topshiriqlar olish – **1 hafta**.

Amaliyot dasturi asosida ta’lim muassasi tomonidan biriktirilgan rahbarlari bilan birga o‘qituvchilarning darslariga kirish, darslarini tahlil qilish, tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish, tayyorgarlik ishlariga yordam berish va h.o. – **2 hafta**.

Amaliyot mazmuni quyidagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

Amaliyot kunlar	Ishning tartib raqami	Ishlarning ketma-ketligi	Soatlar
1	1	Professional ta’limda amal qilinadigan asosiy texnika xavfsizligi qoidalari va muassasa bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar bilan tanishish.	2
	2	Professional ta’lim muassasasida tanishuv ekskursiyasi.	2
	3	Amaliyot yuzasidan tushuntirish ishlari, amaliyot dasturi bilan tanishtirish, amaliyot kundaliklarini tarqatish.	2
2	1	O‘quv tarbiya ishlarining rejalashtirish tizimini asosiy xujjatlarini (<i>dars jadvali, rejalar, dasturlar, jurnal va xisobotlar</i>).	2
	2	Amaliyot o‘tash joyida ish faoliyati va qilinadigan ishlar bilan tanishish, amaliyot davrida bajariladigan ishlar uchun aniq topshiriqlar olish.	2
	3	Ta’lim muassasasida laboratoriya bazasi bilan tanishish.	2
3	1	Ta’lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birga o‘qituvchilarning darslarini tahlil qilish.	2
	2	Ta’lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birga tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish, tayyorgarlik ishlariga yordam berish.	4
4	1	Professional ta’lim muassasasi haqida ma’lumot (<i>yo‘nalishi, pedagogik kadrlari, moddiy-texnika ta’minoti bo‘yicha</i>).	2
	2	Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etish va o‘tkazishini o‘rganish.	2

	3	Kasbiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlar rejasi va matnini tuzish (<i>Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha</i>).	2
5	1	Ta'lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birga o'qituvchilarning darslarini tahlil qilish.	2
	2	Ta'lim muassasasida laboratoriya bazasi bilan tanishish.	2
	3	Maxsus fan o'qituvchisi bilan birgalikda amaliy mashg'ulotdan dars o'tish.	2
6	1	Guruh murabbiylarining ishini kuzatish va tahlil qilish, o'quv mashg'ulotlari o'tish bilan bog'liq hamma turdagi faoliyatlarni bajarish (<i>ishni rejalashtirish, mavzu bo'yicha asosiy va yordamchi o'quv materialini o'rganish va tanlab olish, ko'rgazmali qo'llanma tayyorlash</i>).	2
	2	Talabalarga axborot resurs markazida kerakli adabiyotlardan foydalanishda hamda ichki mehnat tartib intizomlariga amal qilish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish.	4
7	1	Ta'lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birga o'qituvchilarning darslarini tahlil qilish.	2
	2	Professional ta'lim muassasasi moddiy-texnik ta'minotini (<i>xonalar, o'quv poligoni, ustaxona, laboratoriya, amaliy mashg'ulot xonalari, o'quv xo'jaligi</i>).	2
	3	Kasbiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlar rejasi va matnini tuzish (<i>Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha</i>).	2
8	1	Ta'lim muassasasida laboratoriya bazasi bilan tanishish.	2
	2	Ta'lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birga tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish, tayyorgarlik ishlariga yordam berish.	4
9	1	Ta'lim muassasasi tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birga o'qituvchilarning darslarini tahlil qilish.	2
	2	Maxsus fan o'qituvchisi bilan birgalikda laboratoriya mashg'ulotni o'tish.	2
	3	Kasbiy fanlar bo'yicha mashg'ulotlar rejasi va matnini tuzish (<i>Ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha</i>).	2
10	1	Ta'lim muassasasida laboratoriya bazasi bilan tanishish.	2
	2	Pedagogik tanishuv amaliyotni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha qo'yilgan kamchiliklarni o'rganadi, ularni bartaraf etish tadbirini belgilaydi, samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqshadi.	4
Jami:			60

5. PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOTI MAZMUNI

Pedagogik tanishuv amaliyot jarayonida talabalar quydagilarni o'rganishi shart.

- Professional ta'lim muassaslari faoliyati bilan tanishish (tayyorlanayotgan mutaxassislar va ularning yo'nalishi, pedagogik kadrlar, nazariy va laboratoriya amaliy xonalari ularning moddiy texnik bazasi);
- tajribali o'qituvchilarning faoliyati, ish yuritishi va me'yoriy xujjatlari bilan tanishish
- tajribali o'qituvchi va ishlab chiqarish ustozlarining 10-12 ta darsida qatnashish va ularni tahlil qilishni o'rganish;
- o'qitishning psixologik-pedagogik asosini o'rganish bo'yicha kichik hajmda ijodiy topshiriqni bajarish (masalan, darsni diqqatni tashkil qilish va tafakkurni rivojlantirish, darsning didaktik maqsadi va strukturasi va h.k.);
- kuzatishlar kundaligi tutishini o'rganish;
- darsdan tashqari 1-2 ta tarbiyaviy tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishda qatnashish, hamda ularni tahlil qilish;
- o'quv rejalashtirish xujjatlari bilan tanishish (guruh murabbiysining rejasi, o'quv mashg'ulotlari rejasi va matni, pedagogik kengash qarorlari).

6. AMALIYOT KUNDALIGINI YURITISH

Talabaning pedagogik tanishuv amaliyotini o'tganligini tasdiqlovchi asosiy hujjat – kundalik daftari hisoblanadi.

Kundalikda amaliyotning har bir kunida bajarilgan ishlarining tavsifi beriladi. Bundan tashqari talabalarning qaysi ishlarida qatnashganligi to'g'risida to'liq ma'lumot beriladi. Kundalikdagi yozuvlar aniq shaklda olib borilishi kerak va amaliyot rahbarlari tomonidan tekshirilib turiladi. Kundalikda ta'lim muassasalari tomonidan talabaning ishiga tavsifnoma yoziladi va muhr bilan tasdiqlanadi.

7. PEDAGOGIK TANISHUV AMALIYOT HISOBOTI MAZMUNI

Amaliyot bo'yicha hisobot topshirish uchun talaba tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Amaliyotning har bir kunida bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumoti bo'lgan kundalik daftar.
2. Ta'lim muassasi tomonidan tasdiqlangan tavsifnoma.
3. Ta'lim muassasi tomonidan bajarilgan ishlarga baho qo'yilgan hisobot. Hisobot hajmi 15-20 betdan iborat bo'lgan A4 shakl varaqlarida matndan iborat bo'lishi kerak.

Hisobot mazmuni:

- Professional ta'lim muassaslari haqida ma'lumot (yo'nalishi, pedagogik kadrlari, moddiy-texnika ta'minoti);
- kundalik daftar;
- 1 ta nazariy va 1 ta amaliy mashg'ulot darsning tahlili;
- darsdan tashqari tadbirning tahlili;
- darsdan tashqari tadbirni tayyoolash va o'tkazish rejasi;
- kafedra topshirig'i bajarilganligi to'g'risida xujjatlar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“Professional ta‘lim” kafedrası

Ta‘lim muassasasida o‘tkazilgan pedagogik tanishuv amaliyot bo‘yicha

H I S O B O T

Bajardi: 60112400 “Professional ta‘limi” _____
_____ yo‘nalishining _____ kurs _____ guruh
talabasi _____

Tekshirdi: Ta‘lim muassasasi tomonidan tayinlangan rahbar

“ ” _____ 20__ y. _____
(imzo)

Tasdiqladi: Ta‘lim muassasasi direktori

“ ” _____ 20__ y. _____
(imzo) (M.O‘)

Qabul qildi: Universitet tomonidan tayinlangan rahbar

“ ” _____ 20__ y. _____
(imzo)

TOSHKENT –202__ yil.

Ta'lim muassasasi nomi

rahbarning ismi sharifi

Y O ' L L A N M A

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti “_____” fakultetining **60112400 – Professional ta'lim** (_____) bakalavr ta'lim yo‘nalishi 2-kurs _____ guruh talabasi _____ni Universitet rektorining “___” _____ 202__ yil №_____ sonli buyrug‘iga asosan Siz rahbarlik qilayotgan ta'lim muassasasiga **pedagogik tanishuv amaliyotini** (2023-yil “___” _____ dan 2024-yil “___” _____ gacha) o‘tashi uchun jo‘natilmoqda. Ushbu talabaga O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi prezidenti qaroriga asosan kasbiga xos ishlarini bajarish bo‘yicha birlamchi ma'lumotlar olish uchun sharoit yaratib berishingizni so‘raymiz.

“ _____ ”

fakulteti dekani

_____ ta'lim yunalishi ____-kurs _____
guruh talabasining

PEDAGOGIK AMALIYOT O‘TISH KUNDALIGI

Familiyasi _____

Ismi _____

Otasining ismi _____

Amaliyot o‘tadigan joy _____

Amaliyot o‘taydigan joydagi rahbar _____

(F.I.SH., ilmiy unvoni, lavozimi)

Universitetdagi rahbar _____

(F.I.SH., ilmiy unvoni, lavozimi)

Amaliyot o‘tish vaqti 202__ yil “__” ____ dan, 202__ yil “__” ____ gacha

“Professional ta’lim” kafedrasi mudiri _____

“__” _____ 202__ yil.

1. BAKALAVRNING AMALIYOT O‘TKAZISH UCHUN TAQVIMIIY REJASI

№	Bajaradigan ishlar rejasi.	Muddati	Ta’lim muassasasidagi amaliyot rahbarining imzosi

Universitetdagi rahbarning imzosi _____

2. BAKALAVRNING TA’LIM MUASSASASIDA KUNDALIK BAJARADIGAN ISHLARI

Sana	Biriktirilgan ish joyi	Bajarilgan ish.

Universitetdagi rahbarning imzosi _____

3. BAKALAVRNING XULOSA VA TAKLIFLARI

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti _____

_____ bakalavr ta‘lim yo‘nalishi
2 - kurs talabasi _____

202__ yil “__” _____ dan, 202__ yil “__” _____ gacha

Talabaning F.I.SH.

GM nomi

pedagogik tanishuv amaliyotini o‘tib tugatdi.

4. TA’LIM MUASSASASIDAN BELGILAGAN AMALIYOT RAHBARINING TALABANI O‘TAGAN AMALIYOTI HAQIDA XULOSASI

M.O‘.

Ta‘lim muassasasi rahbari _____

(imzo)

F.I.SH.

“__” _____ 202__ yil

5. AMALIYOT NATIJASI.

HISOBOT QABUL QILGAN PROFESSOR - O‘QITUVCHINING XULOSASI

Talabaning amaliyotni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (3-5 baho) _____

Hisobotni qabul qilgan professor-o‘qituvchining imzosi _____

“__” _____ 202__ y.

6. _____ kafedrası _____

Kafedra nomi

_____ ta'lim yo'nalishi

Ta'lim yunalishi nomi

2 - kurs _____ guruh talabasi _____ ning

Talabaning F.I.SH.

pedagogik tanishuv amaliyotini hisobotini qabul qilish hay'ati a'zolari tarkibi:

Rais: _____

F.I.SH. imzosi:

A'zolar: _____

F.I.SH. imzosi:

_____ F.I.SH. imzosi:

_____ F.I.SH. imzosi:

202_ yil "___" _____ dan, 202_ yil "___" _____ gacha pedagogik tanishuv amaliyotida yozgan hisoboti eshitildi.

Hisobot quyidagicha baholandi: (3-5 baho) _____ baho

T A V S I F N O M A

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti 60112400 – “Professiyonal ta’limda” _____ yo‘nalishining ___ bosqich ___ guruh talabasi _____ ta’lim muassasasida “ ___ ” _____ 20 ___ yildan “ ___ ” _____ 20 ___ yilgacha o‘tkazilgan pedagogik tanishuv amaliyotida ___ ta nazariy darsga, ___ ta amaliy darsga qatnashdi. Darsdan tashqari paytda ___ ta o‘quv tarbiyaviy va madaniy ommaviy tadbirlarni o‘tkazishga yordam berdi.

O‘qitish xonalari, ustaxonada ish joylarini jihozlash, ko‘rgazmali qurollarni tayyorlashda qatnashdi: _____

Amaliyot vaqtida talaba o‘zini _____ ko‘rsatdi. Amaliyot davrida _____ kuni ishladi, _____ ish kuni ishlamadi. Amaliyot dasturidagi ishlarni bajargani uchun qo‘yilgan bahosi _____. Talaba _____ kelgusida Professiyonal ta’limda o‘qituvchi bo‘lib ishlash mumkin.

Ta’lim muassasasida

tomonidan tayinlangan rahbar

_____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

Ta’lim muassasasi direktori

_____ (imzo) _____ (F.I.S.H.)

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

а) Asosiy adabiyotlar

1. Ш.М.Мирзиёев Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз -Т.: Ўзбекистон, 2016-55 бет .

2. Ш.М.Мирзиёев Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.- Т.:Ўзбекистон, 2017,-104 бет .

3. Ш.М.Мирзиёев Қонун устворлилиги ва манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.-Т.: Ўзбекистон, 2017.-48 бет..

4. Ш.М.Мирзиёев Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз-Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 бет.

5. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз.-Т.: Ўзбекистон, 2017.-592 бет.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” 27.07.2017 й., ПҚ-3151, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 30-сон, 729-модда.

7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 20.04.2017 й., ПҚ-2909, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 18-сон, 313- модда, 19-сон, 335-модда, 24-сон, 490-модда.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 07.02.2017 й., ПФ-4947, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448- модда.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Қишлоқ ва сув хўжалиги тармоқлари учун муҳандис-техник кадрлар тайёрлаш тизимини

тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 24.05.2017 й. ПҚ-3003, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й.

10. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: 1998. - Б. 20-29.

11. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: 1998. - Б.

12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 4 октябрда “Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари учун педагог кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 400- сонли қарори.

13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 28 майдаги “Малакали педагог кадрларни тайёрлаш ҳамда ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларини шундай кадрлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори

14. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2014.

15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 5.01.98 йилдаги «Узлуксиз таълим тизими учун давлат таълим стандартларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш тўғрисида»ги №5 сонли қарори.

16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 24.02.98 йилдан «Академик лицей ва касб-хунар коллежларини ташкил этиш ҳамда уларнинг фаолиятини бошқариш тўғрисида»ги №77 сонли қарори.

17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 13.05.98 йилдаги «Ўзбекистон Республикасида ўрта махсус, касб-хунар таълимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги №204 сонли қарори.

18. Ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларида ўқув-меъёрий ҳужжатларни тажриба-синовдан ўтказиш низоми.-Т.: 1999.

19. Ўзбекистон Республикасида хунар техника таълимини ривожлантириш концепцияси.-Т.: 1992.

20. Ўзбекистон Республикасида хунар билим юртлари фаолиятининг белгилайдиган низом ва йўриқномалар (йиғма №1) Т.: 1993. (йиғма №2)-Т.: 1994. (йиғма №3)-Т.:1995.

21. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni» T.1992.

22. I.A.Karimov «O‘lloh qalbimizda, yuragimizda» – T.: O‘zbekiston, 1999.

23. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – T.: 1997, 5, 24,25 betlar.

24. R.Mavlanova va boshqalar. Pedagogika. – T.; «O‘qituvchi», 2001.

25. Milliy istiqloq g‘oyasi. Ko‘rgazmali vositalar. – T.: Ma’naviyat, 2001.

26. Mustaqillik izohli-ommabop lug‘at – T.: «Sharq, 1999.

27. A.K.Munavvarov. Pedagogika – T.: O‘qituvchi. 1996.

28. O.Musurmanova. O‘qituvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish – T.: 1993.

29. Musurmanova O. Oila madaniyati – milliy g‘urur. – T.: O‘qituvchi, 2000.

30. Nishonaliev U. YAngi pedagogik texnologiya tamoyillari: muammolar, echimlar. «Pedagogika ta’limi» jurnali. 2000. 3-son. 30 bet.

31. Ochil S. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1995.

32. Ochil S. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999 – 2j.

33. Sayidaxmedov N. O‘qituvchi faoliyatining texnologiyalashuvi. Ma’rifat gazetasi 9-son. 2000.

34. To‘xtaxo‘jaeva M. Ta’limda axborot texnologiyasi. “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2000, 3-son.

35. To‘raev X. Iste’dodli yoshlar – kelajagimiz egalari. T.: Sharq, 2001.

b) Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Davletshin M.G. O‘quvchilarda qobiliyat tarkib topishi. T.: O‘qituvchi, 1965.

2. Shermuhammedov S. Sanoat ishchi kasblari: Hunar texnika bilim yurtlari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1992.
3. Hasanboeva O. va boshqalar. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi, 1997y.
4. Shodiev N. Studentlarga o'qituvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish. – T.: O'qituvchi, 1987.
5. Ergashev Q. Yoshlarning ma'naviy tarbiyasi. – T.: Ma'naviyat. 1999.
6. Mirsaidov K.D. Maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. T.O'qituvchi, 1989.

MUNDARIJA

	Kirish.....	3
1	Amaliyotning maqsadi va vazifalari.....	4
2	Amaliyot ob'ektlari.....	5
3	Amaliyot o'tkazishni tashkil etish.....	6
4	Amaliyotning namunaviy rejasi.....	8
5	Amaliyot mazmuni.....	9
6	Amaliyot kundaligini yuritish.....	9
7	Amaliyot hisobot mazmuni.....	10
	1-Ilova.....	13
	2-Ilova.....	14
	Tafsiyanoma.....	19
	Foydaniladigan adabiyotlar ro'yhati.....	20